

BOLALAR ADABIYOTI FANINING NAZARIY ASOSLARI

Muratova Aziza Kamilovna

Xalqaro Nordik universiteti

Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

azizamuratova3141@gmail.com

Annotatsiya

Bolalar adabiyoti, bolalarning ruhiy va intellektual rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim bir soha bo'lib, uning nazariy asoslari turli ilmiy tadqiqotlar va pedagogik tajribalar orqali shakllangan. Ushbu fan, bolalarga mo'ljallangan asarlarning estetik, didaktik va psixologik jihatlarini o'rganadi. Bolalar adabiyotining nazariy asoslari, avvalo, bolalarning yoshiga mos keladigan mazmun va shaklni tanlashda muhim ahamiyatga ega. Bu asarlar orqali bolalar o'zlarining hissiyotlarini ifoda etish, axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish va ijtimoiy munosabatlarni tushunish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shuningdek, bolalar adabiyotida tilning rivojlanishi, tasavvur kuchi va ijodkorlikni rag'batlantirish kabi jihatlar ham alohida e'tiborga olinadi. Nazariy asoslar shuni ko'rsatadiki, bolalar adabiyoti nafaqat ko'ngilochar material sifatida, balki tarbiyaviy vosita sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar va izlanishlar bolalarning umumta'lim jarayonidagi o'rnini yanada mustahkamlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, bolalar adabiyoti, intellektual rivojlanish, bola psixologiyasi.

Bolalar adabiyoti – bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui. Bularning asosiy qismini badiiy asarlar tashkil etadi. Jahon xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqi Bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o'yin qo'shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, maqol, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalaridan boshlanadi. Bolalar adabiyotini bevosita bolalarga mo'ljallab yaratilgan va aslida bolalarga mo'ljallanmagan bo'lsa-da, keyinchalik Bolalar adabiyotiga o'tib qolgan asarlarga ajratish mumkin.

Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyati – u o'zgaruvchan hodisa bo'lib, u kitobxon yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Kitobxon yoshini hisobga olish Bolalar adabiyotining eng asosiy xususiyatlaridandir. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarda bu ko'rgazmalilik, ezgulik va yovuzlik kuchlarining oddiy ko'rinishdagi ziddiyatlariga asoslangan bo'lsa, o'smirlar uchun yaratilgan adabiyotda murakkab hayotdagi murakkab kishilarning ruhiyati ochila boshlaydi.

Bolalar adabiyotining yana bir xususiyati uning harakatga boyligidir. Bundan Bolalar adabiyotida syujetga bo'lgan talab ham kelib chiqadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fantazyaga, yumorga boy ravishda yechilishini talab qiladi.

Sharq yozma adabiyotida „pandnoma“, „mav'izatnoma“, „nasihatnoma“, „axloq kitoblari“ singari nomlar bilan tasnif qilinuvchi asarlar Bolalar adabiyotining dastlabki namunalari hisoblanadi. Masalan, Kaykovusning „Mav'izatnomai Kaykovus“ („Qobusnoma“), Shayx Sa'diyning „Guliston“ va „Bo'ston“, Jomiyning „Bahoriston“ asarlari shular jumlasidandir. Bular tarjima vositasida o'zbek Bolalar adabiyotiga kirib kelgan. Alisher Navoiyning „Hayrat ulabror“, „Mantiq ut-tayr“ va „Mahbub ul-qulub“ asarlari, Xojaning „Miftoh ul-adl“ va „Gulzor“, Gulxaniyning „Zarbulmasal“ asarlari esa o'zbek Bolalar adabiyotining mumtoz namunalari bo'lib, pand-nasihat ruhidagi maqolat va hikoyatlari bilan asrlar mobaynida yosh avlodni yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda.

Bolalar adabiyotining shakllanishi deyarli barcha xalqlarda asosan ma'rifatparvarlik va maktab-maorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog'liq. O'zbek Bolalar adabiyotining barqarorlashuvi ham 19-asr 2 yarmi – 20-asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakatiga borib taqaladi. Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa o'nlab ma'rifatparvarlarning „Yangi usul“ („usuli jadidiya“)dagi o'zbek maktablari talabalari uchun yaratgan ellikka yaqin alifbo va o'qish kitoblari o'zbek Bolalar adabiyotining tom ma'nodagi yorqin namunalari hisoblanadi. Bolalar adabiyotiga

bolalar uchun maxsus yaratilgan asarlar sifatida qarash, uning o'ziga xos tamoyillarini belgilash 20-asr boshlariga xosdir.

O'zbek Bolalar adabiyoti jahon Bolalar adabiyotining ilgor an'analari ta'sirida rivojlandi. Jahon Bolalar adabiyotining nodir namunalari o'zbek tiliga tarjima qilindi, „Gulliverning sayohatlari“ (J. Swift), „Robinzon Kruzo“ (D. Defo), „Tom tog'aning kulbasi“ (Bicher Stou), „So'na“ (E.Voynich) kabi jahon adabiyotining nodir asarlari o'zbek bolalarining ham mulki bo'lib qoldi.

Sharq adabiyoti eng yaxshi namunalarini arab, fors tilidan tarjima qilish Bolalar adabiyoti tarjimachiligidagi bir yo'nalish bo'lsa, G'arb adabiyoti, xususan rus adabiyoti namunalarini o'zbekchalashtirish ikkinchi yo'nalishni tashkil etdi. I. A. Krilov masallari, A. S. Pushkinning „Baliqchi va baliq haqida ertak“ asari, K. D. Ushinskiy hamda L. N. Tolstoyning bir qancha hikoya, ertaklari va boshqa ayni shu davrda tarjima qilinib, yangi usuldagi maktablar alifbo va o'qish kitoblariga kiritildi. Ijodkorlar tarjima vositasida realistik Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini yanada mukammal egalladilar, bolalar uchun yozuvchi adiblar guruhi shakllandi. 20-asrning 20-30- yillarida Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, G'ayratiy, Shokir Sulaymon, Ilyos Muslim, Gulom Zafariy, Ayniy, Elbek, Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Kudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Shukur Sadulla, Hakim Nazir, Po'lat Mo'min va boshqa ijodkorlarning asarlari o'zbek Bolalar adabiyotining rivojlanishida, maxsus adabiyot sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbek Bolalar adabiyoti da ayniqsa, adabiy ertak janri rivojlandi. Hamid Olimjonning Oygul va Baxtiyor, „Semurg' yoki Parizod va Bunyod“, Mirtemirning „Ajdar“, Shukur Sa'dullaning „Uch ayiq“, „Ayyor chumchuq“, Zafar Diyorning „Yangi ertak“, „Toshxon bilan Moshxon“, „Tulkining hiylasi“, Sulton Jo'raning „Zangor gilam“ va „Qaldirg'och“ singari adabiy ertaklari xalq og'zaki ijodi an'analari asosida yaratilgan, shakl va mazmun jihatdan puxta badiiy asarlar sirasiga kiradi. 30-yillarda o'zbek bolalar she'riyati yuksalib, uning mavzu doirasi kengaydi.

40-60- yillarda o‘zbek Bolalar adabiyoti yanada rivojlandi, bolalar yozuvchilarining safi Nosir Fozilov, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Tolib Yo‘ldosh, Farhod Musajonov, Latif Mahmudov va boshqa qalamkashlar hisobiga kengaydi. Uyg‘un, Mirtemir, Asqad Muxtor, Said Ahmad, Shuhrat, Mirzakalon Ismoilov, Mirkarim Osim singari kattalar adabiyoti vakillari ham bolalarga atab asarlar yaratdilar.

Quddus Muhammadiyning besh kitobdan iborat „Tabiat alifbosi“ yosh kitobxonlarni ona tabiatga, hayvonot va o‘simliklar dunyosiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalovchi, quvnoq kulgi bilan yo‘g‘rilgan, mavzular rangbarangligi va tasvirning mukammalligi bilan e‘tiborga sazovor.

50-60- yillarda G‘afur G‘ulomning „Shum bola“, Oybekning „Bolalik“, Abdulla Qahhorning „O‘tmishdan ertaklar“, Nazir Safarovning „Ko‘rgan-kechirganlarim“ qissalari nasriy Bolalar adabiyoti rivojiga munosib ulush bo‘lib qo‘shildi. Xudoyberdi To‘xtaboyevning „Sehrli qalpoqcha“, „Sariqdevni minib“, „Sariq devning o‘limi“ asarlari ham sara asarlar qatoridan o‘rin oldi. Bular ko‘pgina xorijiy tillarga tarjima qilindi. Hakim Nazirning „So‘nmas chaqmoqlar“, „Yonar daryo“, „Kichkintoy“ qissalari, „Lochin qanotlari“ romani davrning dolzarb muammolarini qamrab olishi, badiiy tasvirning o‘ziga xosligi bilan e‘tibor qozondi.

80- yillar Bolalar adabiyoti da Anvar Obidjon, Safar Barnoyev, Rauf Tolipov, Qambar Utayev, Hamza Imonberdiyev va boshqa ijodkorlarning asarlari yosh avlodni eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi bilan e‘tiborga sazovor bo‘ldi.

Bolalar adabiyotida badiiylik bilan bir qatorda ma‘rifiylik ham yetakchi o‘rin tutadi. Chunki Bolalar adabiyoti namunalari yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Barcha davrlar Bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, avvalo, ma‘rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Biroq Bolalar adabiyoti rivojlanib borgani sari uning sof badiiyat unsurlarini egallashga intilishi va umumadabiyot taraqqiyot tamoyillari bilan hamkorligi ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, 20-asr boshlarida o‘zbek Bolalar adabiyotida ko‘proq

ma'rifatparvarlik g'oyalari yetakchilik qilsa, 30-yillar Bolalar adabiyotida realistik adabiyot tamoyillari ustuvor, 50-60- yillar Bolalar adabiyoti da sarguzasht fantastik adabiyot elementlari kuchaydi. 80-yillar Bolalar adabiyotida psixologizmning kuchayishi, yosh qahramon talqinida uni yosh bola tarzida emas, hayotga tobora jadal kirib kelayotgan, o'z qarashlariga ega bo'lgan shaxs sifatida tasvirlashga intilish ruhi mavjud.

O'zbek Bolalar adabiyoti taraqqiyotida 90- yildar yangilanish davri bo'ldi. Istiqlol sharofati bilan milliy, madaniy, adabiy va diniy qadriyatlarning tiklanishi Bolalar adabiyoti namoyandalari ijodiga ham sezilarli ta'sir qildi, ularning asarlarida haqiqiy o'zbek qiyofasi tasviri yetakchi o'rin egallay boshladi.

Bolalar adabiyotining o'ziga xosliklari uning qahramoni tasvirida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Masalan, 20-asr boshlari Bolalar adabiyoti namunalari ko'proq ijodkorning faolligi, qahramon tasviri emas, targ'ibiy-tashviqiy ruh ustuvorligi bilan ajralib tursa, 30-yillar Bolalar adabiyotida ko'proq xalq og'zaki ijodiga murojaat qilingan, bu davrda yaratilgan asarlarda ham hali faol qahramon obrazi deyarli yo'q edi. 50-60- yillar Bolalar adabiyoti namunalari bevosita yosh qahramonlarning asarlar voqealarida hal qiluvchi o'rin tutish bilan chinakam Bolalar adabiyotiga aylandi. 70-80- yillar Bolalar adabiyoti namunalaridan esa tobora hayotga o'z nuqtai nazari bilan qaraydigan, balandparvoz, ritorik ta'riflardan ko'ra tanqidiy nigohi o'tkirroq yosh qahramon qiyofasi gavdalana boshladi, shu davrda o'zbek Bolalar adabiyotiga ilk bora bolalarning o'ziga xos, endigina uyg'onib kelayotgan pok muhabbati kirib keldi. 90-yillar adabiyotida bu borada yangi qadam tashlandi, o'zbek bolasi o'zbekning farzandi ekanligidan faxrlanish, ulug' ajdodlarga munosib bo'lish ruhidagi, tom ma'nodagi vatanparvarlik g'oyasi ustuvor asarlarni o'qish baxtiga musharraf bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Suyumov A., Kichkintoylar adabiyoti, T., 1962;
2. Jahongirov F., O'zbek bolalar folklori, T., 1975;
3. Bolalar adabiyoti va zamonaviylik, T., 1981;
4. Safarov O., O'zbek bolalar poetik folklori, T., 1985;
5. O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon, T., 1989;
6. Muratova, A. K. (2023). "MAORIF VA O 'QUTG 'UCHI" JURNALIDA ZAMONDOSH ADIBLAR IJODINING TALQINI. GOLDEN BRAIN, 1(9), 115-121.
7. Muratova, A. K. (2022). Muratova Aziza Kamilovna Mirzo Ulug 'bek. RESEARCH AND EDUCATION, 1(1), 193-200.
8. Muratova, A. (2024). ALISHER NAVOIY IJODIDA YUSUF (AS) OBRAZI TALQINI. Nordic_Press, 3(0003).